

EPIDEMIOLOGIK TADQIQOTLARDA QO'LLANILADIGAN STATISTIK
METODLAR VA ULARNING KAMCHILIKLARI

G'oyibnazarova K. Sh.

ToshPTI Epidemiologiya, yuqumli kasalliklar kafedrası

"Epidemiologiya" yo'nalishi klinik ordinatori

Shojalilova M. S.

ToshPTI Epidemiologiya, yuqumli kasalliklar kafedrası dotsenti

Mavzuning dolzarbligi: Epidemiologik tadqiqotlar kasalliklarning tarqalishini tushunish va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Statistik metodlar ushbu tadqiqotlarda xavf omillarini aniqlash, natijalarni prognoz qilish va shu asosda xulosalar chiqarish uchun keng qo'llaniladi. Biroq statistik metodlarning kamchiliklari, jumladan, metodologik xatoliklar va ma'lumotlarni talqin qilishdagi noaniqliklar, aniq va ishonchli epidemiologik natijalarni olishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Epidemiologik tadqiqotlarda statistik metodlarning qo'llanilishini tahlil qilish va ularning kamchiliklarini aniqlashdir. Tadqiqotda epidemiologik statistik metodlar, ularning samaradorligi va cheklovlari o'rganiladi, shu bilan birga kasalliklarning tarqalishini aniqlash va prognozlashda yuzaga keladigan metodologik qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi.

Materiallar va qo'llanilgan usullar: Tadqiqotda epidemiologiya va statistik metodlar bilan bog'liq ilg'or ilmiy maqolalar, kitoblar va jurnallardan, tibbiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Natijalar: Epidemiologik tadqiqotlar — bu kasalliklarning tarqalishini o'rganish va uning ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bo'lib, ular sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash va kasalliklarni oldini olishga yo'naltirilgan. Statistik metodlar epidemiologik tadqiqotlardagi o'zgaruvchilarni tahlil qilish va natijalarni ishonchli ravishda talqin qilish uchun ishlatiladi. Ma'lumki yuqumli kasalliklarda o'ziga xos mavsumiylik, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'tarilish holatlari — epidemik periodiklik kuzatilib, ularni oldini olish ko'pincha mazkur holatlarni oldindan prognoz qilish bilan yanada samarali bo'ladi. Tabiiyki bunda qator statistik tahlil usullari qo'llaniladi. Bular keng foydalaniladiganlari quyidagilar:

1. Deskriptiv tahlil: Bu metodlar ma'lumotlarni tahlil qilishda, ularni umumiy tarzda tasvirlashda ishlatiladi. Masalan, kasalliklarning tarqalishi, inkubatsion davr va boshqa ko'rsatkichlar deskriptiv statistika yordamida aniqlanadi.
2. Taqqoslash va regressiya tahlillari: Kasallik bilan bog'liq omillarni aniqlash uchun ikkita yoki undan ortiq guruhlar taqqoslash kerak bo'ladi. Regressiya tahlili esa kasallik va uning sabablarini o'zaro bog'lashga yordam beradi.
3. Kogort va krossover tahlillari: Kogort tadqiqotlarda o'zgarishlarni kuzatib, ularning kasallik tarqalishiga ta'sirini aniqlash mumkin. Krossover tadqiqotlarida esa bir nechta davr davomida guruhlar orasida o'zgarishlar kuzatiladi.

Bu kabi statistik tahlil usullari o'z o'rnida ilmiy izlanishlar uchun asosiy yordamchi bo'lsa-da, ammo ularning ham ma'lum kamchiliklari bo'lib, bu kamchiliklar ayrim holatlarda sezilarli noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kamchiliklarni quyidagicha tahlil qilamiz:

- a) Statistik metodlar kasalliklar va sabablar o'rtasidagi bog'liqlikni faqat taqqoslash asosida ko'rsatadi, lekin sababiylikni isbotlash uchun yanada kengroq ilmiy izlanishlar talab etiladi.
- b) Observatsion tadqiqotlar tasodifiy tanlov amalga oshirilmasa tashqi omillarni hisobga olmaydi va bu statistik tahlillarda noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin.
- c) Kichik namunalar yoki noto'g'ri o'lchovlar natijalarni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Bu metodlarni yanada aniqlash va tasdiqlash uchun kengroq tadqiqotlar talab etiladi.
- d) Ba'zan kamchilik bevosita tahlil usullari bilan emas, balki mazkur tahlilni o'tkazayotgan tadqiqotchining usul mohiyatini to'liq anglamagan holda uni noto'g'ri qo'llashi oqibatida yuzaga keladi.

Xulosa: Statistik metodlarning to'g'ri qo'llanilishi kasalliklarning sabablari va xavf omillarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, bu esa kasalliklarni oldini olish va davolash usullarini optimallashtirishga yordam beradi. Epidemiologik tadqiqotlar samaradorligini oshirish uchun statistik metodlar doimo takomillashtirilishi, yanada kengroq ma'lumotlar asosida ishlanishi kerak. Shuningdek, kasalliklarning sabablarini aniqlash va xavf omillarini tahlil qilish uchun ishonchli metodologiyalarga tayanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O. M. Mirtazayev, L. P. Zuyeva, G. S. Matnazarova "Epidemiologiya", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan darslik, Toshkent 2020.
2. S. S. Esonturdiyev, M. S. Qarshiboyeva "Gigiyena va sanitar tekshirishlar texnikasi", tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma, Toshkent 2007.
3. P. J. Wolfe. Epidemiology for Public Health Practice. Jones & Bartlett Learning, 2019.